

O‘SMIRLARNING PUL HAQIDAGI IJTIMOIIY TASAVVURLARINI ETNOPSIXOLOGIK ASOSLARI

Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna

Toshkent Davlat Pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy psixologik ahamiyati sohasida olib borilgan izlanishlar asosida to‘plangan ma’lumotlarga tayangan holda ilmiy mushohada yuritilgan bo‘lib, asosan xorij psixolog olimlarining bu boradagi psixologik qarashlari o‘rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi, muammoni o‘rganishga oid tadqiqot metodi asosida olingan natijalar bo‘yicha xulosa beriladi. Shunindek, O‘smirlarning pul haqidagi ijtimoiy tasavvurlarini etnopsixologik asoslari haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: o‘smir xulq-atvori, ma’naviyat, ahloqiy normalar, qadriyat.

Shaxsning axloqiy jihatdan intensiv tarkib topishi, axloqiy ongining shakllanishi, hatti-harakatlarning etik normalarini o‘zlashtirishi o‘smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikalaridandir. O‘smirlik yoshi - o‘z hatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashning, ma’naviy e’tiqod, prinsip hamda ideallarni baholash mulohazalari tizimining tarkib topish davridir. Agar bola kichik maktab yoshi davrida kattalarning, o‘qituvchilarning va ota-onalarning bevosita ko‘rsatmalari bilan yoki o‘zining tasodifiy, impulsiv istaklari ta’siri bilan harakat qilgan bo‘lsa, endilikda uning uchun o‘z hatti-harakatlarining prinsipi, o‘zining qarashlari, e’tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo‘yiladi. O‘smirning qanday axloqiy tajriba orttirishiga, qanday axloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o‘smirlik yoshi axloqiy jihatdan intensiv rivojlanish yoshi bo‘lganligi tufayli ko‘pincha o‘smir ongida, tarbiyachi o‘quvchi ongiga singdirmoqchi bo‘lgan hislatlarga qarama-qarshi axloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin. Biz bolani mehnat bilan jazolash mumkinmi, deb tez-tez muzokara qilamiz. Bu muammoni o‘smirga nisbatan ko‘yadigan bo‘lsak, u yanada ortikroq ahamiyat kasb etadi. Chunki, xuddi o‘smirlarda axloqiy maslaklarning ma’lum tizimi ham, shu jumladan mehnatga munosabat ham tarkib topa boshlaydi. Ba’zi odamlar mehnat bilan jazolash mumkin deb qaraydilar va bu holatni oqlashga harakat qiladilar. Ammo, kishilarga va mehnatga bo‘lgan munosabat tarkib topa boshlagan o‘smir bu masalani tushunishga urinib ko‘radi. U o‘z tajribasidan biladiki, katta kishilar hech qachon biron yaxshi narsa bilan jazolanmaydilar. Modomiki, jazolar ekanlar, demak biron yoqimsiz narsa bilan jazolaydilar. Agar mehnat bilan

jazolasalar, unday paytda o‘smirning ongida mehnat qandaydir mudhish narsa degan ma’lum tasavvur yuzaga kela boshlaydi. Biz o‘smirning ongiga mehnat shon-sharafdirdir, mardlik va qahramonlikdir degan tasavvurni singdirishimiz kerak deb hisoblaymiz. Lekin bu so‘zlar quruq gap bo‘lib qoladi, o‘smirlar ongida boshqa maslaklar mustahkamlanib qoladi. Psixologlar o‘z oldilariga o‘smirlar ma’naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o‘rganish vazifasini ko‘yganlar. Psixologik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘smirlar ma’naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi. O‘smirlarning ko‘pchilik qismi yoshlariga munosib ma’naviy tushunchalarni to‘g‘ri tushunadilar. E’tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog‘langan holda o‘smirlarning axloqiy ideallari xam yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar yetarli darajada chuqur mazmundor, faoldir va bu ideallar o‘ziga xos axloqiy namuna bo‘lib xizmat qiladi, o‘smir esa hatti-harakatlarini ana shu namuna bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o‘smirlar uchun odatda qandaydir bir kishi ideal bo‘ladi. Bu odam o‘smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o‘zida gavdalantirgan bo‘ladi. Ko‘pincha bunday ideal ota-onalar, o‘qituvchilar yoki yaxshi ko‘radigan kitobidagi va kinofilmidagi qahramonlardir. Katta yoshdagi o‘smirlarda ideal sifatlarni majmui umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

Shungdek bugungi kunda o‘smirlar o‘rtasida pulga nisbatan quydagich munosabatda bo‘lish kuzatilmoqda.

Puldek kuchli narkotik yo‘q dunyoda!

Moddiy boylik bu har bir insonning o‘zi erishgan yutuqlari va yaxshilik qilish kuchi (allohdan qo‘rqish) dir. Va haqiqiy boylikning kulingizdagi rasmi bor qog‘ozning ko‘pligi va kamligiga hech aloqasi yo‘qdir.

Inson bola bo‘lib tug‘iladi so‘ng voyaga yetib er bo‘ladi, ayolga aylanadi. Bu er va ayol ota -onaga aylanishadi. Insonning mana shu davrlarida pulga munosabat ham o‘ziga xos bo‘lar ekan.

Pul - yashash uchun kerak.

Pul - almashinuv vositasi.

Pul - hayotiy tajriba maydonidir.

Pul –sababli yoshlar o‘rtasida ijtimoiy qatlamni paydo qiladi. Pulni yig‘ish bir ijtimoiy qatlamida uvol qilmaslik deb baholansa, boshqa ijtimoiy qatlamda saxiy emaslik deb baholanadi. (Eh, qog‘oz pul aybdor, uvolmi, saxiy emasmi?)

Pulsizlik kambag‘allikmikan?

●Psixotip 1: «Pul-yaxshilik va erkinlik deb hisoblaydigan insonlar.

Pulga haqgo‘ylik, javobgarlik, erkinlik deb munosabat bildirishadi.

●Pul munosabatlarida nizo paydo qilmaydilar. Pul - erishish, rivojlanish va mehr degan qadriyatlarga ega bo‘ladi.

- Pulni yaxshilik va erkinlik yo‘lida ishlatuvchilar "pul bilan urishmaydilar!", depressiyaga kirmaydilar va pul bilan depressiyadan chiqishmaydi.

- Pul ular uchun maqsad emas balki maqsad uchun vositadir.

- Kerak maqsadga pulsiz yetishning iloji bo‘lsa, bu insonlar uchun qadri tushib ketadi.

Pul munosabatida javobgarlik va mehnat mahsuli pulga hurmat yuzasidan qarashadi.

- Psixotip 2: Pul - bu yomonlik, erkinlikni yo‘qolishi, pulga qaramlik deguvchilar. Pul yolg‘onni boshlanishi, munosabatlarni buzuvchi, nohaqlikni boshlanishi deb hisoblaydigan insonlar.

- Pul munosabatida o‘zirniki deyish, "menga ko‘proq" deyish psixologiyasi munosabatlarda nizolashish paydo bo‘lsa qadriyatni tanlashadi. Ammo bu tanlovlari tagida o‘zini va o‘zgalarni ayblash va kechira olmaslik kabi negativ hissiyotlar paydo bo‘lishi mumkin.

- "Boy bo‘lish ham og‘ir" deb ko‘p mashaqqatli mehnat qilishadi. Doimiy pul yetishmasligi va bu haqda nolish xususiyati xos.

- Psixotip 3: Pul bu nohaqlik, pulsizlik ulim bilan teng, pulsizlik karamlik, pulga bandalik degan fikrli insonlar. Pul bu prinsip, nohaqlik va haqiqatni qaror topishi va oxir oqibat pulsiz hech narsa bitmaydi deyishadi.

- Ayrim yoshlarni pul bo‘lmasa kayfiyat chatoq, pulsiz siyosat sayoz, pulsiz bel ham bodga chalinadi degan fikrli insonlar.

- Maqsad qo‘yishdan oldin pulni taxlab olishadi. Pul topish yo‘llarini yaxshi bilishadi. Pul oldi berdisida albatta muammoga duch keladilar. Chunki pullik muammoning boshi xam oxiri xam o‘zlari-yu!

- O‘smirlar o‘rtasida pul ishlash jarayonida harom yo‘llarni bosib utilganida ichki ayblash,"o‘zini o‘zi yomon ko‘rib vijdoni qiynalishi" holatining bo‘lishi kuzatiladi.

- Ba‘zi yoshlar puli bo‘lsa ham halovati yo‘q insonlar doimo "yaxshi-yomon kun"ga atab pul yig‘averishadi. Pul sarflashga judayam xasislarcha yondashadilar. O‘ziga pul sarflashga eng oxirgi o‘ringa kuyib, o‘zini xo‘rlangan, azoblangan deb hisoblayverishadi.

- Pul bor-u mavqe yo‘q, siyosat yo‘q xilidan. Hamma joyda pul bilan yutuqqa erishadilar. Insonlarni puli bilan o‘ziga karam qilish evaziga ishlatishga moyillik buladi. Xulq-atvorida egoizm, manmanlik, kibr, qay yo‘l bilan bo‘lsa-da g‘oliblikka erishish maqsadi ustun turadi.

- Bu insonlarning qadriyati "boshliklik", "kuch", "xavfsizlik"deganda pulni tushunishadi.

- Pul masalasida insonlar bilan munosabat tortishuv va agressiyaga asoslanadi.

• Pulga tortishish tagida doimiy uni yetmasligi his qilish kuchsizligi yotadi. Bu insonlar ichidagi nizo nafaqat pul oldi berdisiga, mehr yetmasligini xam pulsizlikka taqashi yotadi.

• O‘smirlar bir birlarini pul munosabatlarida judayam ko‘p adashdilar.

• O‘ziga pul ishlatib kuysa, o‘zini aybdor his qilishadi. Boshqalarniyam ko‘p pul sarflashda ayblaydilar.

Psixotip 5: «Pul bilan qadriyat o‘rtasidagi aloqani paydo qilmagan insonlar. Pul muomalasi qadriyatiga ta’sir qilmaydi.

• Pul ular uchun sabr-bardosh va javobgarlik tarzidir.

• “Haqiqat” va “Yolg‘onchilik”, “Lafz” va “belafzlik” o‘rtasidagi chegaraga uncha ham e’tibor bermaydilar.

• Ba’zi o‘smirlar pulni erkinlik beruvchi vosita sifatida qabul qilishadi. Pul bu mavqe, “pulsiz rivojlanib bo‘lmaydi” degan shiori bor insonlar. Shu bilan bir qatorda javobgarlikni his qiladilar.

• Pulga, moddiy boylikka bog‘liqlik darajasi o‘rta miqdorda. Pulni “hayot va mamot” deb hisoblamaydi, ammo, pulsiz hech bir qadam yo‘q!” deb hisoblaydilar.

• Pulni ishlatishga yaxshi malakasi bor.

Psixotip 6: Pul bu yomonlik va erkinlik deb baho beradiganlar. Pul muomalasida nohaqlik, besabrlik, ochko‘zlik, belafzlikni qo‘rqmay ishlatuvchi insonlar.

• Hayotiy ehtiyojlari ichida pul birinchi o‘rinda turadi.

• Pul bu insonlar uchun pastkashlik, yolg‘on, nohaqlik va shu orqali erkinlik hamda rivojlanish deydigan insonlar.

• Pul yig‘ishga va uni ko‘paytirishga malakasi yetmaydi. Pul muomalasida reja, sabr, uzoqni ko‘ra bilish kabilardan yiroq insonlar.

Psixotip 7: Ba’zi yoshlar dunyoni pul bilan o‘lchaydigan insonlar. Otasiyam pul, onasiyam pul bu insonlar uchun. Hech bir qadriyat, rahm, uyat degan narsa ishlaymaydi. Shunchalik ham pul muomalasida qattiqlik qilishadi. Faqat olishsa-yu, ular uchun boshqalar xarajat qilsa.

Etnopsixologiya (xalqlar psixologiyasi, etnik psixologiya) psixologiyaning turli irq va xalqlar ruhiy tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z predmeti sifatida qaraydigan sohalaridan biri; ijtimoiy psixologiyaning asosiy sohasi. Ikki fan — madaniy antropologiya va psixologiya kesishmasida paydo bo‘lgan fanlararo bilim sohasi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘smirlarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalash ularning o‘zlarini o‘zlari tarbiyalashga yo‘naltirish bilqn qo‘ib olib borilgandagina yuqori samarali bo‘lishi mumkinligi haqidagi faraz ham o‘z tasdig‘ini topdi. Shaxsning ma’naviy ahloqiy rivojlanishi jarayoni uning ma’naviy ehtiyojlari doirasi kengayishi, ideallari va qadriyatlari yuksalishi bilan uyg‘un tarzda kechadi. Shuning

uchun o‘smirlarning ma’naviy-ahloqiy ehtiyojlarini shakllantirish va mavjudlarini yuksaltirish orqali ma’naviy ahloqiy tarbiya samaradorligini oshirishga erishish mumkin. O‘smirlarni ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashga kirishdan avval ularning shu jihatlarini aniqlash bo‘yicha psixodiagnostika tadbirlari o‘tkazish mutlaqo zarur. Psixologik tashxis natijalariga qarab o‘smirlarni ma’naviy ahloqiy tarbiyalash bo‘yicha aniq reja va dastur tuzish mumkin. Ma’naviy-ahloqiy tarbiya jarayonidan ko‘zdangan maqsadlarga faqat tarbiyani o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayoni bilan uyg‘unlashtirilganda erishish mumkinligini hisobga olib, o‘smir o‘zini-o‘zi tarbiyalashga yo‘naltirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun o‘smirlar ongida ma’naviy ahloqiy qadriyatlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishini ta’minlaydigan tadbirlarni amalga shirish maqsadga muvofiq. Jumladan, tarbiya jarayonida o‘smir irodasini va empatiya tuyusini rivojlantirishga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 600.
3. Olimov L, Avezov O. Social Psychological Characteristics Of Psychological Defenses Manifested In Adolescents In Extreme Situations. International Journal of Scientific & Technology Research. volume 9, issue 02, february 2020. P 2784-2786.
4. Olimov L.Ya, Maxmudova Z.M. Psychological peculiarities in stressful situations and social psychological features of coping behavior manifestation. "Science and Education" Scientific Journal. February 2022/ Volume 3 Issue 2. www.openscience.uz 1324-1333.
5. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.